XALQ DEPUTATLARI KASBI TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 25-avgust VII-20-84-4-61-K/26 Kasbi tumani

Kasbi tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov narxlari (tariflar)ni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4845-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarorining 8-bandi “a” kichik bandi ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Kasbi tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2026-yil 18-avgust kunidagi 01-20-237/10-38-/351-sonli xatini, Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2026-yil 26-yanvardagi VII-21-13-4-0-K/26-son qarori va xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori rahbarlik va jro uchun qabul qilinsin.

2. Kasbi tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limining tumanda Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov narxlari (tariflar)ni belgilash to‘g‘risidagi taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Kasbi tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha tariflar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga markaziy koʻchalar boʻyidagi tadbirkorlik subyektlariga koʻrsatiladigan chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlari uchun yangi tariflar tasdiqlanganligini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilik hamda tadbirkorlik subyektlari eʼtiboriga yetkazish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi G‘.Xujageldiyevga hamda ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosari M.Tursunov zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qaror rasmiy veb-sayt va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin

Kengash raisi **SHARIPOV SHOMUROD BESHBOYEVICH**

Xalq deputatlari Kasbi tumani
Kengashining
2026-yil 25-avgustdagi
VII-20-84-4-61-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Kasbi tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha
TARIFLAR

Xizmat koʻrsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki model raqam**	**Oʻlchov birligi**	**Tarif miqdori (soʻm) (QQS bilan)**
Yuridik shaxslar uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	96 628,0
Yuridik shaxslar uchun	Obodonlashtirish	m^2	3 641,0